

YANGI KONSTITUTSIYANING INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARIGA TA'SIRI.

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri IIV Qashqadaryo akademik litsey
huquqshunoslik fani katta o'qituvchilari*

Norbo'taeva Saodat Rashidovna va Turayev Faxriddin Egamberdiyovich.

Annotatsiya: Yangi Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklariga ta'siri hamda undagi islohotlar samarasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, xalq, davlat, ijtimoiy himoya, huquq, qonun ustuvorligi.

Inson huquqlari - har bir alohida shaxsning qadr-qimmati va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlaydigan qoidalar majmuasidir. Ular huquqiy davlat konstitutsiyaviy huquqining negizini tashkil etib, shaxsning huquqiy maqomi asosini va asosiy huquqlarini mujassamlashtiradi.

Millati, tili va dinidan qat'i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan «Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat» g'oyasini amalga oshirish ezgu maqsadimiz sifatida belgilandi. Ayniqsa, Konstitutsiyamizni takomillashtirish bo'yicha faol sa'y-harakatlar olib borilayotganligi ushbu islohotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. 2022-yil 25 iyun kuni matbuotda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi mamlakatimiz hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarni o'zida aks etirganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Unda inson qadrini ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Qayd etish joizki, hozirda ushbu loyiha yuzasidan keng miqyosli umumxalq muhokamasi amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda to'xtalib o'tmoqchi edikki, inson huquq va

erkinliklarining kafolatlari o‘zida nimani aks ettiradi? Kafolat kafillik qilish ma’nosini anglatadi. «Kafil» tushunchasiga ko‘ra, kafil biror narsaga yoki biror kimsa haqida boshqalarni ishontirib, mas’uliyatni, javobgarlikni o‘z ustiga oluvchi, kafolat beruvchi shaxs ma’nosini bildiradi.[1] «Kafolat» esa kafil bo‘luvchi narsa, shaxs ma’nolarida qo‘llaniladi. Umuman olganda kafolat bu – mas’uliyatni, javobgarlikni o‘z ustiga olgan holda ishontirish, ta’minalash degan ma’noni anglatadi. Demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib qo‘ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlarni ko‘rsatuvchi shartlardan biri – insonning huquq va erkinliklarini qonunlarda belgilanishi hamda ularning ta’milanishi uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: «Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’milanishi bilan bevosita bog‘liq». Zero, davlatning insonparvarligi va madaniy darajasi, u o‘tkazayotgan ijtimoiy siyosatning mazmuniga qarab baholanadi.[2] Shuning uchun ham islohotlar davrida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning tub mohiyati aholining huquq va erkinliklarini ta’minalashga qaratilgan maqsadli ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishdan, ayniqsa, ijtimoiy adolat qoidalalarini yanada mustahkamlash, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari mavqeini oshirishdan iborat. Davlat jamiyat hayotidagi barcha, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, munosabatlarni tartibga solib borish vazifasini amalga oshirishda huquqiy vositalardan qanchalik mohirona foydalana olsa, jamiyat hayoti ham shunchalik erkin va tartibli muhitga ega bo‘ladi. Shunday qilib, inson huquqlarining va erkinliklarining kafolati, bu – umumxalq tomonidan qabul qilingan, davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki tasdiqlangan, shaxslar va fuqarolarga belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarni amalda ta’minalashga yordam beradigan huquqiy vositalar, yuridik usullar va shart-sharoitlar majmuidir. Kafolatlashning asosiy maqsadi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga

keladigan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq. Siyosiy kafolatlar sifatida huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta'minlanishi hamda tegishli maxsus vakolatli tuzilmalarining tuzilishi hamda faoliyat ko'rsatishini tushunish mumkin. [3] Shu nuqtai nazardan yondashganda bir qator organlar: parlament, prezident, hukumat, sudlar, vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat tashkilotlari kabilarning faoliyat ko'rsatishi qonuniylik va inson huquqlarini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi. Masalan, jamiyat hayotining turli sohalarida parlament va mahalliy kengashlar nazorati, jamoatchilik nazoratining mavjud ekanligi tegishli sohalarda qonuniylikni ta'minlashga yordam ko'rsatadi. Yana bitta misol, uchta hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va muvozanatda bo'lish tamoyilining mavjudligi inson huquqlarini ta'minlashning yaqqol siyosiy kafolatidir. Inson huquq va erkinliklari ta'minlanishining muhim sharti, bu huquqiy kafolatlarning yaratilganligi hisoblanadi. Ya'ni, bu – fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi hamda ularni ta'minlashga, amalga oshirishga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarning mavjudligi hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarda huquqiy bo'shliqlarning mavjud ekanligi uni himoya qilish imkoniyatini bermaydi. Shu bois, vakolatli davlat organlari tomonidan faol norma ijodkorligi siyosati amalga oshirilmoqda.

Huquqiy kafolatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:[4]

fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzish mumkin bo'lgan harakatlarni taqiqlash va chegaralashning yuridik me'yorlarini mustahkamlash;

fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqsiz amalga oshirishlarida davlat idoralari va mansabdor shaxslar mas'ulligini belgilash;

tajovuzdan himoya etilishni, mustahkamlashni ta'minlovchi maxsus me'yorlar (shikoyat qilish huquqi, sudga murojaat qilish huquqi) mavjudligi;

huquqni buzganlik uchun yuridik javobgarlikning belgilanganligi (mulkiy, intizomiy, ma'muriy, jinoiy).[5]

Yana bir muhim kafolat, bu – ҳуқуқ va erkinliklarning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlar tizimidir. Agar davlatda yetarli iqtisodiy, moddiy, moliyaviy manbalar, imkoniyatlar bo‘lmasa, huquqlarni amalga oshirish uchun sharoit bo‘lmaydi. Davlat iqtisodiy tomondan qanchalik kuchli bo‘lsa, huquq va erkinliklardan foydalanish imkoniyati ham shuncha kuchayib boradi. Hozirda keng muhokama etilayotgan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasida fuqarolarning huquq va erkinliklariga oid normalar ham kengaytirilmoqda. Ma’lumki, amaldagi Konstitutsiyamizda davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minalashi, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasida ekanligi, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi kafolatlangan.

Taklif etilgan loyihada fuqarolar huquq va erkinliklarining bir qator kafolatlari yanada kuchaytirilmoqda.

Xususan:

43-modda yangi tahrirda berilmoqda. Unga ko‘ra, inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta’minalash davlatning oliy maqsadi ekanligi belgilanmoqda. Shuningdek, davlat inson va fuqaroning Konstitutsiyada hamda qonunlarda mustahkamlangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalashi hamda har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi belgilanmoqda.

44-modda tahririga ko‘ra, har kimga o‘z huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdar

shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har bir shaxs o‘zining buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun o‘z ishi vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan oqilona muddatlarda, tenglik, tortishuv vaadolat prinsiplari asosida ko‘rib chiqilishi huquqiga ega.

Shuningdek, har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq o‘z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishi uchun inson huquqlari bo‘yicha milliy va xalqaro institatlarga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilanmoqda. 45-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilmoqda «Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining hayot sifatini oshirishga, ularga jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralar ko‘radi». Yuqorida o‘zgarishlar barchamizni xursand qiladi. Nima uchun? Chunki, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarining kafolatlari kuchaytirilmoqda, bizlarga yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda Asosiy qonunimizda quyidagi yangi kafolatlarni ham kiritish maqsadga muvofiq:

birinchidan, yoshlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlashni davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishi etib belgilash maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, gender tenglikni ta’minlashga oid mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinishi bilan davlatning gender siyosatida sifat o‘zgarishi ro‘y berdi. Shunga muvofiq, davlat xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishdagi, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalaridagi huquqlari tengligini ta’minlashi hamda jinsiga qarab bevosita yoki bilvosita kamsitishga yo‘l

qo‘yilmasligi bo‘yicha normalarni Konstitutsiya darajasida belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalar huquqlarining davlat va jamiyat himoyasida ekanligi mamlakat fuqarolarining o‘zaro ahillik, olivjanob va mehr-muhabbat muhitida yashayotganligini bildiradi. Ushbu muhitda voyaga yetgan har bir inson milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlashga harakat qiladi. Bu esa mamlakatimiz fuqarolarining hayot tarzini yanada yuksaltirish, tinch-totuvligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent 2020.[1]**
- 2. Sh.Mirziyoyev "Yangi O‘zbekiston: demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" Toshkent-2021.[2]**
- 3. Muminov Abdulkay Rashidovich, Tillabaev Mirzatillo Alisherovich Inson huquqlari: darslik /Muminov A.R., Tillabaev M.A. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. - 2-nashr. -T.: "Adolat" nashriyoti, 2013. - 402 bet.[3]**
- 4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.[4]**
- 5. <http://www.lex.uz>[5]**